

## **INKULYUZIV TA’LIMNING HUQUQIY ASOSLARI**

**Mirzaabdullayeva Guloyim Ergashboy qizi  
ADPI, Maktabgacha ta’lim pedagogika  
va psixologiyasi yo’nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta’lim tizimi ya’ni inkulyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi va inkulyuziv ta’limning huquqiy asoslari haqida fikr yuritiladi. Inkulyuziv ta’lim tizimini yanada rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar va Prezident farmonlari to’g’risida bayon etilgan.

**Kalit so’z:** Inkulyuziv ta’lim, huquq, maxsus ta’lim, korreksion, alohida ta’lim, pedagog, imkoniyati cheklangan.

Inkulyuziv ta’lim bu – davlat siyosati bo‘lib , imkoniyati cheklangan va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish , maxsus ta’limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar iyyimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jaryoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inkulyuziv ta’lim (ing. Inclusive uyg‘unlashmoq , qamrab olmoq , qamrab olish) ma’nolarini bildiradi.

O‘zbekistonda inkulyuziv ta’limning takomillashtirish alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 13- oktyabrda “ Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi ( PQ 4860 ) qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalar to‘g‘risida quyidagi fikrlar bayon etilgan.

- inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;
- inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;
- inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanadi;
- inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;
- inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi.

Inkulyuziv ta’lim tizimi yurtimizga yangi kirib kelayotgan ta’lim ta’lim tizimi bo‘lganligi sababli muammolari hali to‘liq bartaraf etilmagan. Bugungi kunda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun maktab va internatlar ochilgan . Imkoniyati cheklangan bolalar inkulyuziv ta’lim sinflari va va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan guruhlarga ajratiladi.

Quyidagilar qabul qilinadi:

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

1. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar – (eshitish qobilyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar).
2. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar – (ko‘rish qobilyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar).
3. Somatik kasalliklari – (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar).
4. Nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar – (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolalaliya, dizartiya, psixik – nutqiy rivojida sustlik duduqlanish).
5. Tayanch – harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar – ( bolalar serebral falaji, sokoloz, poliomuyelit, miopatiya, osteomiyalit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmasligi – pakanalik).
6. Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch – harakat tizimida nuqsoni bo‘lgan bolalar.
7. Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar – ( serebral falaji – o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlanadigan bolalar).
8. Intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar.
9. Hulq – atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistic spektri buzilgan bolalar.
10. Intellektual rivojlanishi saqlanib qolgan , tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar- ( agar bola anticonvulsant dorisini qabul qilganda tutqanoq 1 oyda 1 marotabadan oshmagan paytda).

Quyidagi bolalar qabul qilinmaydi :

1. Aqli o‘ta zaif bolalar – (imbisil , idiotiya darajasidagi oligrifeniya).
2. Xulq – atvorning og‘ir buzilishlari – ( hissiy – irodaviy sohasida organic nuqsonlari bo‘lgan bolalar ).
3. Tayanch – harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan va o‘z – o‘ziga hizmat ko‘rsata olmaydigan bolalar.
4. Ko‘r – kar – soqov bolalar.
5. Tez – tez takrorlanadigan epileptic tutqanoqdan aziyat chekadigan ( epileptik demensiya kunduzgi va tungi vaqtlarda tutqanoq‘I tez – tez takrorlanadigan bolalar ).
6. Markaziy asab tizimiga shikast yetganligi tufayli siydik va najasini ushlab turlmaydigan bolalar.

Yurtimizda bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya “ qabul qilingan . Kanvensiyada quyidagilar bayon qilingan:

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e‘lon qilganligini eslatib, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a‘zolari, ayniqsa, bolalar o‘sibulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga to‘liq oladigan bo‘lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta‘minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamoloti uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘sishi zarurligini e‘tirof etilgan.1924 yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘zda tutilganligini va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktda (jumladan, 23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktda (jumladan, 10-moddada), shuningdek, ixtisoslashgan

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug’ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli xujjatlarida e’tirof etilgan

Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta’minot masalalari bilan shug’ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma’muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo’qmi, bundan qat’iy nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta’minlanishiga birinchi darajali e’tibor beriladi.

Ishtirokchi-davlatlar o’z zimmasiga bolani uning farovonligi uchun zarur hisoblangan himoya va g’amxo’rlik bilan ta’minlash, bunda uning ota-onasi, vasiysi yoki qonun bo’yicha uning uchun javobgar sanalmish boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlarini e’tiborda tutishni hisobga oladilar hamda ana shu maqsadda barcha qonuniy va ma’muriy chora-tadbirlarni ko’radilar.

Ishtirokchi-davlatlar bolalar haqida g’amxo’rlik ko’rsatish yoki ularni himoya qilish uchun mas’ul hisoblangan organlar, muassasalar va xizmatlar vakolatli organlar tomonidan belgilab qo’yilgan me’yorlarga, xususan, xavfsizlik va sog’liqni saqlash sohasida va ulardagi xodimlarning soni va ishga yaroqliligi, shuningdek, vakolatli nazorat olib borishi nuqtai nazaridan belgilangan me’yorlarga javob berishlarini ta’minlaydilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Выготский Л . С . Дефект и сверхкомпенсация// “Проблема дефектологии” М.,1996.-С.42.
2. Maktablar hamma uchun - Save the children – 2002y
3. Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya. 2020 – yil 13 – oktyabr ( PQ4860).
4. Pulatov Sh. N. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy – siyosiy vaziyat . Academic Research In Educational Sciences . Volume 1 . 2020 . 468474 P.